



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyun holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1704 taga oshdi**
- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi 5,4 % **ni tashkil etdi.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1760 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyun oyida viloyat bo'yicha 2264 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 646 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34,1 % ga kamaygan hamda ularning soni 504 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1704 ta (6,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 26348 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Andijon shahrida (33,4 %), Asaka (9,3%), Andijon (6,7 %) va Shahrixon (6,6 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Andijon viloyati	27847	100,0	26348	100,0
Oltinko'l	1540	5,5	1379	5,2
Andijon	1932	6,9	1759	6,7
Baliqchi	1478	5,3	1371	5,2
Bo'z	692	2,5	686	2,6
Buloqboshi	682	2,5	670	2,5
Jalaquduq	1071	3,9	1042	4,0
Izboskan	1237	4,4	1189	4,5
Ulug'nor	534	1,9	530	2,0
Qo'rg'ontepa	1542	5,5	1313	5,0
Asaka	2481	8,9	2444	9,3
Marxamat	1217	4,4	1183	4,5
Shahrixon	1971	7,1	1729	6,5
Paxtaobod	957	3,4	917	3,5
Xo'jaobod	943	3,4	930	3,5
Andijon sh.	9148	32,9	8791	33,4
Xonobod sh.	422	1,5	415	1,6


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,6%ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 foizga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan **25,4 %** savdoda, **20,0 %** sanoatda, **8,6 %** qurilishda, **6,9 %** qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, **4,7 %** yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, **3,8 %** tashish va saqlash, **1,9 %** axborot va aloqa, **2,2 %** sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va **26,5 %** boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-iyun holatiga 2264 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 39,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Andijon shahrida (602 ta), Asaka (199 ta), Oltinko'l (157 ta) va Andijon (145 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Ulug`nor (53 ta), Buloqboshi (64 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi boshqa turlarda (577 ta), savdoda (480 ta), sanoatda (469 ta), qurilishda (237 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (158 ta) hamda tashish va saqlashda (128 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (38 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (81 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (96 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyun holatiga.	2018 yil yanvar-iyun holatiga.
Jami:	1618	2264
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	168	158
Sanoat	486	469
Qurilish	144	237
Savdo	400	480
Tashish va saqlash	75	128
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	75	81
Axborot va aloqa	35	38
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	30	96
Boshqa turlari	205	577

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).


2018 yil 1 iyul holatiga 21812 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6130 ta, oilaviy korxonalar – 529 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlari – 14557 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 38 tani va boshqalar 558 tani tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 189 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 taga yoki 18,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 107 tasi qo'shma korxonalar, 82 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 81 ta (42,9 %), Andijon tumani 16 ta (8,5 %), Shahrixon tumani 15 ta (8,0 %) va Asaka tumanlari 11 ta (5,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bo'z tumani 1 ta (0,5 %), Ulug'nor tumani 3 ta (1,6 %), va Paxtaobod tumani 4 ta (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 142 ta (75,1 %) va savdoda 16 ta (8,5 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (0,5 %), tashish va saqlashda 2 ta (1,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 6 ta (3,2 %), boshqa faoliyat turlarida 6 ta (3,2 %) va qurilishda 7 ta (3,7 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 9 ta (4,8 %) tashkil qilgan. Shu bilan birga axborot va aloqa faoliyat turlarida esa tashkil qilinmagan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 20 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga ko'paygan yoki 2,0 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi - 7 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 3 ta, Janubiy Koreya Respublikasi - 3 ta, Pokiston Islom Respublikasi - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 2 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 2 ta, Qozog'iston Respublikasi - 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan otgan. Shuningdek, 2018 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-iyun holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 9 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta, savdoda 4 ta, tashish va saqlashda 2 ta hamda boshqa turlarda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 21683 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 6,2 % ga pasaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 7765 tasi (35,8 %) Andijon shahriga, 2071 tasi (9,5 %) Asaka, 1477 tasi (6,8 %) hamda Andijon 1385 tasi (6,4 foizi) Shahrixon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 21683 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 6675 tasi (30,8 %) – savdoda, 5207 tasi (24,0 %) - sanoatda, 2546 tasi (11,8 %) - boshqa faoliyat turlari, 2258 tasi (10,4 %) - qurilishda, 1780 tasi (8,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1236 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 981 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 504 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 496 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-iyun holatiga 1798 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 16,2 % ga ko'pdir.

Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (518 ta), Asaka (166 ta), Andijon (126 ta) va Oltinko'l tumanlarida (125 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (32 ta), Xonobod shahar (54 ta) hamda Buloqboshi (47 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (479 ta), sanoatda (469 ta) va qurilishda (237 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (38 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida (81 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (95 ta), boshqa turlarda (114 ta), tashish va saqlashda (127 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyul holatiga 558 tani tashkil etib, ulardan 529 tasi yoki 94,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 9,9 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda oilaviy korxonalarning 42,5 % yoki 225 tasi sanoat, 24,9 % yoki 132 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,2 % yoki 59 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,8 % yoki 52 tasi savdo, 7,6 % yoki 40 tasi boshqa faoliyat turlar, 1,1 % yoki 6 tasi qurilish, 1,7 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 0,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi**



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**

Nashr uchun mas'ul: Z.Sidiqov